

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olingan  
№ 1074/2024 yil



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining 2024-yil  
"27" dekabr dagi  
485 - sonli buyrug'i bilan  
tasdiqlangan.

**"INSON RESURSLARINI BOSHQARISH"**

yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini  
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Toshkent - 2024



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

### OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

#### OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

#### TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining*

*2024-yil 24.10. dagi 18 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.*

<b>Tuzuvchilar:</b>	<p>“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslar” moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, yu.f.b., PhD F.B.Maxmudov. “Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to’qnashuvining oldini olish” moduli: yu.f.n., prof. V.Topildiyev, yu.f.d., prof. B.I.Ismailov. “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” moduli: t.f.d., prof. D.Irgasheva, p.f.b., PhD Sh.Adashboyev, p.f.b., PhD A.Obidov. “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” moduli: i.f.d., prof. R.Nurimbetov p.f.b., PhD N.Xaqnazarova. “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.b., PhD I.Eshmamatov, R.Dj.Ishmammedov, A.Turayev, A.Abduraxmonov. “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.d., prof. J.Tolipova, p.f.b., PhD M.Innazarov. “Inson resurslarini boshqarishda zamonaviy mehnat iqtisodiyoti” moduli: S.B.G’oyipnazarov, TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, D.I.Iskandarova TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida assistenti “Inson resurslarini boshqarishda dolzarb muammolar” moduli: A.B.Xayitov TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, M.M.Xolmatov TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida assistenti</p>
<b>Taqrizchilar:</b>	<p>f.-m.f.d., akademik Sh.Ayupov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti direktori. f.-m.f.d., akademik A.Sadullayev – O‘zbekiston Milliy universiteti.</p>
<b>Xorijiy ekspert:</b>	<p>f.-m.f.d., professor V.K.Jarov – AFXTI (Rossiya), Fundamental va amaliy matematika kafedrasida mudiri.</p>
<b>Hamkor tashkilotlar:</b>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat, munosabatlari vazirligi tashkilotlari</p>

*O'quv dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2024-yil 29.11 dagi 4 - sonli bayonnomasi).*

## Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejaları asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, inson resurslarini boshqarishda zamonaviy mehnat iqtisodiyoti asoslarini qo‘llash, inson resurslarini boshqarishda



dolzarb muommolarini hal etish bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari.

1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.

1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.

1.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

1.6. Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari.

1.7. Inson resurslarini boshqarishda zamonaviy mehnat iqtisodiyoti

1.8. Inson resurslarini boshqarishda dolzarb muommolar.

**Malakaviy attestatsiya**

#### **Kursning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

“Inson resurslarini boshqarish” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“Inson resurslarini boshqarish” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

#### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O'zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida” hamda “Innovatsion faoliyat to'g'risida” Qonunlarini;
- O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiiq etish istiqbollari;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejaları, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
- ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
- zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;



- ta'limda sun'iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;
- bilimlarni sinash va baholashning aqlli tizimlarini;
- jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo'nalishlarni;
  - zamonaviy ta'limning global trendlarini;
  - inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'limning yoshdagi ahamiyatini;
  - oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
  - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
  - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
  - universitetlarning zamonaviy modellarini;
  - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
  - tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
  - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
  - innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;
    - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
    - kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
    - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
    - pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
    - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;
      - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
      - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
      - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
      - ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
      - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
      - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
      - mehnat bozorini tahlil qilish va istiqbollashtirish uslubiyatini;
      - mehnat unumdorligini o'lchash usullari va ularni qo'llanish sohasini;
      - aholini turmush darajasi, daromadlari va uni davlat tomonidan tartibga solish yo'llarini;
        - iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnatga haq to'lash tizimlarini tashkil etishni;

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini;
- mehnat bozorini tahlil qilish va istiqbollashtirish uslubiyatini;
- mehnat unumdorligini o'lchash usullari va ularni qo'llanish sohasini;
- aholini turmush darajasi, daromadlari va uni davlat tomonidan tartibga solish yo'llarini;
  - iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnatga haq to'lash tizimlarini;
  - aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini;
  - inson resurslaridan samarali foydalanishni;
  - zarur personal tarkibini shakllantirish bilan korxonalar faoliyatini kompleksli maqsadli yo'naltirilganligini;
  - personal kasbiy mehnat layoqatini rivojlantirish xususiyatlarini;
  - personal faoliyatini baholash usullarini;
  - tashkilotning inson resurslarini kasbiy standartlarga muvofiqlikka sertifikatlash metodikasini;
  - inson resurslarini baholash natijalari asosida rag'batlantirishni *bilishi* kerak.

#### Tinglovchi:

- "O'zbekiston-2030" strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o'zlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash;
- pedagogik jarayonda sun'iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
- OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;



- tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;

- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;

- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;

- o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;

- talabalarining o'quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarining kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ni nazorat qilish;

- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- mehnat bozorini strategik rejalashtirish, mehnat bozori sigmenti va uni monitoringini o'tkazish, mehnat resurslari migratsiyasi va mobilligini real holatini tartibga solish, mehnat resurslari balansini tuzish va tahlili qilish, mehnat resurslarini boshqarish xizmatida ish yuritish va axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- makro va mikro darajada inson resurslariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash;
- korxonalarda inson resurslarini boshqarish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish va amalga qo'llash;
- korxonalarda inson resurslarini boshqarish va nazorat qilish jarayonida ish faoliyatining sifati va miqdorini baholash;

- inson resurslari boshqarishda innovatsiyalarni joriy etish;
- mehnat jamoalarini rejalashtirish va boshqarish, boshqaruv faoliyati elementlari va ulardan boshqaruv jarayonida samarali foydalanish;

- makro va mikro darajada inson resurslarini shakllanish omillarini tahlil qilish;
- inson resurslarini safarbarligini baholash;
- xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiyalash usullarini qo'llash;
- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;

- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;

- an'anaviy va raqamli ta'limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;

- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;

- raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta'limga samarali integratsiya qilish yo'llaridan foydalanish;

- ta'limdagi sun'iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;

- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;

- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarni tahlil etish;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;

- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;

- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;

- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarining o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida inson resurslarini boshqarishning zamonaviy kontseptsiyalaridan foydalanish;

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida inson resurslarini boshqarishning zamonaviy kontseptsiyalaridan foydalanish;

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida inson resurslarini boshqarishning zamonaviy kontseptsiyalaridan foydalanish;

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida inson resurslarini boshqarishning zamonaviy kontseptsiyalaridan foydalanish;



- inson resurslarini rejalashtirish va mehnat resurslari bozorini rivojlantirish tendentsiyalarini aniqlash va tahlil qilish;
- mehnat sohasida ijtimoiy sherikchilik mexanizmlaridan samarali foydalanish;
- korxonalar, tashkilot va firmalarning tub maqsadiga erishishini ta'minlovchi inson resurslarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirish;
- iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlarni tahlil etish va baholash;
- inson resurslarini boshqarish funksiyalari va usullaridan foydalanish;
- inson resurslarini boshqarishda xulq-atvor omillarini hisobga olish;
- boshqaruv qarorlari qabul qilish va turli toifadagi xodimlar professional faoliyatining psixologik tahlilini amalga oshirish;
- inson resurslarini baholash tizimi: mohiyati, turlari va asosiy usullarini o'zlashtirish;
- ish haqi to'lashni tashkil etishda Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiyalari va tavsiyanomalaridan foydalanish *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

#### Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyotga tatbiq etish;
- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarini oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta'limdagi ta'sirini ochib berish;

- sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMLarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tatbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta'limiy (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- korxonalar va tashkilotlarda kadrlar siyosatini ishlab chiqish;
- xodimlarni ishga yollash, foydalanish va ishdan bo'shatishni shartnomaviy tartibga solish va ulardan foydalana olish;
- korxonalarda kadrlarni ishga jalb etish va yollashdan tortib istiqbolli kadrlarni zaxirasini shakllantirishga bo'lgan jarayonni boshqarish;
- inson resurslarini boshqarishning huquqiy asoslarini o'zlashtirish va uni shartnomaviy tartibga solish;
- inson resurslari balansi asosida mehnat bozoridagi talab va taklifni tahlil qilish;
- xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va lavozimlarga birlashtirish;
- inson resurslarini baholashning zamonoviy usullarini hamda inson resurslarini boshqarish tamoyillarini amaliyotda qo'llash;
- iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitlarida inson resurslarining son va sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni tavsiflash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

#### Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan mustaqil malaka oshirish shakllari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklarni eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan



muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

## **“INSON RESURLARINI BOSHQARISH” YO‘NALISHI BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI**

### **1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma‘naviy asoslari.**

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va o'rtirilgan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘shish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘shish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiiq etish istiqbollari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma‘naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari.

Milliy ma‘naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma‘naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O‘zbekistonning o‘rni, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

### **1.2. Oliy ta‘limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish.**

Oliy ta‘lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta‘lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy xujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy xujjatlarining turlari. Normativ huquqiy xujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni. Ta‘lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning mohiyati. Oliy ta‘lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta‘lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar. Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligining ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta‘lim standartlari, ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish.

Oliy ta‘lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Oliy ta‘lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarining ko‘rinishi, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta‘minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanilishi lozim bo‘lgan xorij tajribasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.



### 1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.

Ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasi. Pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi. Raqamli didaktika va uning asosiy tamoyillari. Raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablar. Raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash.

Raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizayn. Mediasavodxonlik va xavfsizlik. An'anaviy va raqamli ta'limda pedagogik dizaynning xususiyatlari. Raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi. ADDIE pedagogik dizayn tushunchasi. UX-dizayn. Internetdagi turli manbalar bilan ishlashda maxsus norma va qoidalarga rioya qilish: mediasavodxonlik, mualliflik huquqi, axborot xavfsizligi. Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullari.

Raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlari. Raqamli ta'lim resurslaridan (RTR) foydalanish. RTRni tanlash, elektron kutubxonalar bilan ishlash, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ochiq o'quv platformalarida ommaviy onlayn kurslarni tanlash.

Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash. Pedagogik faoliyatda bulutli xizmatlardan (Google, H5P, Canva, figma) foydalanish. Bulutli xizmatlardan foydalanib infografika, videoma'ruza va multimedia vositalarini o'z ichiga qamrab olgan interaktiv taqdimot yaratish, animatsiya effektlarini o'rnatish, giperhavolalar yordamida taqdimot namoyishini boshqarish.

